

## Uvaysiy Ijodining Manbalari Xususida

*Odinaxon Qodirova*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Jahonotin Uvaysiy, shubhasiz, e'tirof etilgan ayol ijodkorlarning sarboni edi, desak hech ham yanglishmagan bo'lamiz. Uvaysiy nafaqat o'zbek, balki Sharq mumtoz she'riyatidagi o'ziga xos, betakror siymo. Uning lirikasi alohida bir go'zal badiiyat olamini tashkil etadi. Atoqli shoiramizdan bizgacha zalvarli adabiyot durdonalari meros bo'lib qolgan. Bu merosni haqli merosxo'ri sifatida chuqur o'rganib, butun olamga e'tirof qilsak arziydi.

**Kalit so'zlar:** ijodkor, mumtoz she'riyat, adabiyot, qo'lyozma devon, millat, ma'naviyat, milliy qadriyat, she'riy asar.

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, ko'p sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham tubdan islohotlar olib borilmoqda. O'zbek xalqi ham dunyoning boshqa xalqlari kabi erkin millat sifatida o'z o'tmishiga yaqindan nazar solish, uni chuqur o'rganish, milliy qadriyatlarini qayta tiklash va mustahkamlash hamda ana shu omillarga tayangan holda yorqin kelajak yo'lini tanlash imkoniga ega bo'ldi.

Mustamlakachilar tomonidan ma'naviy qoloq, savodsiz, deya nohaq kamsitilgan mazlum xalq ichidan iste'dodli, yuksak ma'naviyatli, millati uchun qayg'uradigan insonlarning ko'plab yetishib chiqqani g'oyat faxrlanarlidir. Ayniqsa, ularning orasida ayollarning ham salmoqli ekanligi e'tiborni tortadi.

Uvaysiy asarlaridan namunalar chop etilishi va tadqiq etilishi turli yillarda O.Sharafiddinov, O'.Rashid, A.Qayumov va E.Ibrohimova, H.Razzoqov, Ulfat, G'.Abdullaev, Boqir, T.Jalolov; mustaqillik yillarida M.Qodirova, I.Adizova, A.Turdialiev va U.Ne'matovlar tomonidan amalga oshirilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, E.Ibrohimova Uvaysiy hayoti va ijodi bo'yicha maxsus shug'ullandi, ilmiy tadqiqotlar olib bordi. I.Adizova esa "Uvaysiy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va dunyoning turli mamlakatlarida nashr qilingan monografiya hamda qator maqolalari bilan shoira ijodini butun dunyoga tanitdi.

Jahonotin Uvaysiy ijodiy merosini tashkil qiluvchi she'riy asarlar turli yillarda tuzilgan 4 ta she'riy devon, XIX asr 1-choragi va XX asr boshlarida tuzilgan ko'plab bayozlarda jamlangan. Ular, asosan, Qo'qon va Andijonda tuzilgan.

Jahonotin Uvaysiyning adabiy merosini shartli ravishda quyidagicha guruhlaymiz:

1. Uvaysiy devoni qo'lyozmasi. O'zRFA ShI (hozirgi Sharqshunoslik ilmiy markazi) jamg'armasida 1837, litografik kitoblar fondida 669 raqamlari ostida saqlanadi.
2. Uvaysiy devoni qo'lyozmalari. Andijon viloyati Adabiyot va san'at muzeyi jamg'armasidagi 138050, 138049, 138048 raqamli devon qo'lyozmalari. Devonlarga TR.Q. (turkiy qo'lyozma) 05, TR.Q.(turkiy qo'lyozma) 06 raqamli birka qo'yilgan. Devonlar go'zal nasta'liq yozuvida yozilgan.
3. Uvaysiy dostonlari qo'lyozmasi. Qo'qon adabiyot muzeyida KP-4190, R-21 inventar raqami ostida saqlanadi. Ushbu devonda Jahonotin Uvaysiyning "Shahzoda Xasan" va "Bobo Ravshan" dostonlari o'rin olgan.
4. Shoiraning zamondosh shoirlar va keyingi davrda she'riyat muxlislari tomonidan tuzilgan bayozlar.
5. Po'latjon Qayyumovning "Tazkirai Qayyumiy" asari.

<sup>1</sup> ADU, O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi



6. Shoiraning mavjud qo'lyozma devonlari asosida 1959-1963-1983-yillarda kirill yozuvida nashr qilingan devonlari.
7. A.Turdialievning 2010-yilda yaratilgan "Mazmun ma'dani" nomli Uvaysiy lirik merosini jamlagan krill yozuvidagi devon.

Andijonlik adabiyotshunoslar H.Razzoqov va A.Saydalievlar Andijon davlat pedagogika instituti talabasi bo'lgan Xoljonbibi Mag'ziyning yaqin qarindoshi vositasida Uvaysiy devonining uchta qo'lyozma nusxasi haqida ma'lumot oladilar. H.Razzoqov va A.Saydalievlar Xoljonbibi Mag'ziy xonadonida saqlanayotgan Uvaysiy devonining uchta qo'lyozma nusxasini qo'lga kiritganlar hamda 1963-yilda mazkur qo'lyozma devondagi she'rlarni joriy yozuvga transliteratsiya qilgan holda shoira ijodi ixlosmandlariga taqdim qilganlar. Keyinchalik ushbu qo'lyozma devonlar Andijon davlat pedagogika instituti (hozirgi Andijon davlat universiteti)ning adabiyot kafedrasiga topshirilgan edi. Bu qo'lyozmalarning oliygoh kutubxonasi tomonidan qo'yilgan 138049, 138049 va 138050 raqamli nusxalari bugungi kunda Andijon viloyat Adabiyot va san'at muzeyi jamg'armasida saqlanayotgani muzey ilmiy xodimi G'anisher Qosimov orqali aniqlangan.

**138050 raqamli qo'lyozma devon<sup>2</sup>.** Andijon viloyati Adabiyot va san'at muzeyi jamg'armasidagi 138050 raqamli devon qo'lyozmasi boshqa mavjud nusxalardan hajman kattaligi bilan ajralib turadi. Mazkur qo'lyozma 210 varaq, ya'ni 420 betdan iborat bo'lib, Qo'qon varag'iga yozilgan, muqovalangan. Har sahifada 11, 12 bayt va undan ortiq hajmda turli janrlardagi she'rlar joylashtirilgan. Unda hijriy 1311 (melodiy 1893) yil sanasi bor. Qo'lyozma Uvaysiyning evarasi Andijon viloyati Marhamat tumanida yashagan Mag'ziy taxallusli shoira Xoljonbibi tomonidan nasta'liq yozuvida ko'chirilgan. Devon qo'lyozmasi an'anaviy hamd bilan boshlangan. U g'azal shaklida bo'lib, matlai qo'yidagicha: *Bihamdillah, tilimni ayladim hamdingga man go'yo,/ Bo'lub minqori naydek bosh ayog'im jumlai a'zo.* Hamd sakkiz baytdan iborat, maqtasi: *Zaifu xasta zodu hazinu gung, lol ermish,/ Uvaysiy qaysi til birla desun hamdingni bar a'lo.*

Jahonotin Uvaysiyning bugungi kungacha adabiyot ixlosmandlariga o'n uchta chistoni ma'lum edi. Ahamiyatlisi shundaki, Andijon viloyat Adabiyot va san'at muzeyi jamg'armasida saqlanayotgan 138050 raqamli qo'lyozma tarkibida shoiraning jami ellik uchta chistoni o'rin olgan. Bu ma'lumot shuni ko'rsatadiki, shoiraning mazkur devoni hozirgacha to'la o'rganilmagan.

**138049 raqamli qo'lyozma devon<sup>3</sup>.** Uvaysiy devonining yana bir qo'lyozmasi Andijon viloyati Adabiyot va san'at muzeyi jamg'armasidagi 138049 raqamli devon qo'lyozmasi hisoblanadi. Mazkur qo'lyozma 114 varaq, ya'ni 228 betdan iborat bo'lib, Qo'qon varag'iga yozilgan, muqovalangan. Har sahifada 11, 12 bayt va undan ortiq hajmda turli janrlardagi she'rlar joylashtirilgan. Unda hijriy 1288 (melodiy 1870) yil sanasi bor. TR.Q. (turkiy qo'lyozma) 05 raqamli birka qo'yilgan. Devon go'zal nasta'liq yozuvida yozilgan. Devonning 1-sahifasida "Ushbu devon marg'ilonlik Jahonotin Uvaysiynikidir" degan kotibning jumlasini bilan boshlanadi. Ushbu devonda g'azal, muxammas, musaddas, musamman, mustazod, qit'a, masnaviy, ruboiy, tuyuq, chiston, fard kabi janrlar bor. Ushbu devon "*Qodiru qayumdursan hamdinga ruxsat manga*" satrlari bilan boshlanuvchi g'azal bilan boshlangan bo'lib, u an'anaviy 7 baytli g'azallar sirasiga kiradi. Bu g'azal an'anaviy hamd mavzusidadir.

**Uvaysiy dostonlari qo'lyozmasi.** Qo'qon adabiyot muzeyida KP-4190, R-21 inventar raqami ostida saqlanadi. Ushbu qo'lyozmada Uvaysiyning "Shahzoda Xasan" va "Bobo Ravshan" dostonlari o'rin olgan. Dostonlar sariq Qo'qon varag'iga yozilgan, qalin jild bilan muqovalangan. Bu qo'lyozma 1274-hijriy (1857-1858-yillar)da, nasta'liq yozuvida yozilgan.

Uvaysiyning "Shahzoda Xasan" va "Shahzoda Husan" dostonlari xalq orasida "Karbala-noma" deb yuritilgan, ushbu dostonlar otinbibilar tomonidan ayollar marosimlarida ijro etilgan. "Bobo Ravshan"

<sup>2</sup> Qarang: Uvaysiy. Qo'lyozma.Devon. Andijon viloyat Adabiyot va san'at muzeyi jamg'armasi. TR.Q (turkiy qo'lyozma) 06.210 varaq.1311 hijriy (m.1993) -№138050.

<sup>3</sup> Uvaysiy. Qo'lyozma.Devon. Andijon viloyat Adabiyot va san'at muzeyi jamg'armasi. TR.Q (turkiy qo'lyozma) 05.105 varaq. 1288 hijriy (m.y.1870). №138049.



dostoni xalq orasida ma'lum, ammo ilmiy jihatdan o'rganilmagan. Bu doston o'z tadqiqotchisini kutmoqda.

**Uvaysiy devoni.** Jahonotin Uvaysiyning she'rlaridan iborat bo'lgan krill yozuvidagi devon bo'lib, 1959-yilda Aziz Qayyumov va E'tibor Ibrohimovalar tomonidan nashrga tayyorlangan. Ushbu devonga O'zRFA ShI (hozirgi Sharqshunoslik ilmiy markazi) jamg'armasida 1837, litografik kitoblar fondida 669 raqamlari ostida saqlanadigan qo'lyozma devon asos qilib olingan. Ushbu devondagi namunalar shuni ko'rsatadiki, 138048, 138049, 138050 inventar raqamli qo'lyozma devonlardan ham foydalanilgan. Bu devonda 219 g'azal, 25 ta muxammas, 1 ta musalsal ( uchlik ) va boshqa janrlardagi she'rlar mavjud.

**Uvaysiy devoni.** Jahonotin Uvaysiyning she'rlaridan iborat bo'lgan kirill yozuvidagi devonlardan biri bo'lib, 1963-yilda Hoshimjon Razzaqov, G'anijon Abdullaevlar tomonidan nashrga tayyorlangan. Ushbu devonga, asosan, 138048, 138049, 138050 inventar raqamli qo'lyozma devonlar asos qilib olingan. Bu devonga ham shoiraning hamd va na't mavzusidagi she'rlari kiritilmagan. Hattoki, mazkur kitobning kirish qismida hamd va na't mavzusidagi asarlarga salbiy munosabat bildirilgan, bizningcha, zamonasozlik vajidan shunday qilingan.

Ushbu devon mualliflari Jahonotin Uvaysiyning mavjud qo'lyozma devonlaridagi va 1959-yilda krill alifbosida chop etilgan devonini ko'zdan kechirib, yana ikki yuzga yaqin turli janrlardagi shoiraning she'rlari joriy yozuvga transliteratsiya qilinib adabiyot ixlosmandlariga taqdim etilgan. Hoshimjon Razzaqov va G'anijon Abdullaevlar ushbu devonda imkoni boricha ilgari transliteratsiya qilinmagan she'rlarni qamrab olishga harakat qilishgan.

Ushbu devonda 151 ta g'azal, 13 ta muxammas (3tasi Alisher Navoiy g'azaliga bog'langan), 1 ta mustazod, 1 ta murabba', 6 ta musaddas, 2 ta masnaviy, 3 ta tuyuq, 9 ta chiston, 4 ta fard kabi she'riy janrdagi asarlar o'rin olgan.

**“Ko'ngil gulzori” nomli Uvaysiy devoni.** Amonullo Valixonov(Boqir) va Imomiddin Qosimov (Ulfat) tomonidan 1983-yilda chop etilgan Krill yozuvidagi she'riy devon. Ushbu devonning kirish qismida Uvaysiyning hayoti va ijodiga oid ko'pgina ma'lumotlar berilgan. Devonda turli janrdagi she'rlar izchillik bilan devon tuzish an'alariga asoslangan holda joylashtirgan. Jumladan, 209 ta g'azal, 1 ta mustazod, 10 ta muxammas, 5 ta tarje'band, 1 ta tarkibband, 5 ta chiston janridagi she'riy asarlar ushbu devondan o'rin olgan.

**“Mazmun ma'dani” nomli Uvaysiy devoni.** A.Turdialievning 2010-yilda yaratilgan “Mazmun ma'dani” nomli Uvaysiy lirik merosini jamlagan Krill yozuvidagi devon. Ushbu devon avvalgi devon nashrlari hamda Qo'qon adabiyot muzeyida saqlanuvchi qo'lyozma devonlar, bayozlar asosida tayyorlangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Uvaysiyning hayoti va ijodi haqida ko'p ishlar qilindi, ammo shoiraning ijodiy mahorati o'zbek adabiyoti ixlosmandlariga to'liq ochib berilgani yo'q. Shu kungacha chop etilgan devonlaridagi asarlari hali yakuniga yetkazilmagan. Andijon pedagogika instituti (hozirgi Andijon davlat universiteti) kutubxonasida 138048, 138049, 138050 inventar raqamlari bilan saqlangan devonlarni ko'rib chiqib amin bo'lish mumkinki, ushbu devonlarda hali o'rganilmagan turli janrlardagi asarlar mavjud. Ma'lumki, shoiraning shu kungacha 269 g'azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba va 13 chistoni o'rganilgan, ammo yuqorida inventar raqamlari keltirilgan devonlarini ko'zdan kechirgach, bu janrdagi raqamlar to'liq emasligiga ishonch hosil qilish mumkin. Bunga sobiq tuzum davrida diniy-tasavvufiy ruhdagi asarlarini chop etish havfli bo'lganini, yuqorida inventar raqamlari keltirilgan devonlarini uzoq vaqt topilmagani sabab qilib ko'rsatishimiz mumkin. Yuqoridagi holatlar uvaysiyshunoslik hanuzgacha o'z takomiliga yetmaganini ko'rsatadi. Umid qilamizki, keyingi yillarda ham Sharq mumtoz she'riyatining o'ziga xos, betakror siyosi Uvaysiyning hayoti va ijodi haqida ko'plab tadqiqotlar amalga oshiriladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Uvaysiy. Qo'lyozma.Devon. Andijon viloyat Adabiyot va san'at muzeyi jamg'armasi. TR.Q (turkiy qo'lyozma) 05.105 varaq. 1288 hijriy (m.y.1870). №138049.



2. Uvaysiy. Qo'lyozma.Devon. Andijon viloyat Adabiyot va san'at muzeyi jamg'armasi. TR.Q (turkiy qo'lyozma) 06.210 varaq.1311 hijriy (m.1993) -№138050.
3. Uvaysiy.Devon.Tuzuvchilar: Qayumov A. va Ibrohimova E. Toshkent, 1959y.
4. Uvaysiy. Devon. Tuzuvchilar: H.Razzaqov va b. Toshkent, 1963 y.
5. Uvaysiy. Ko'ngil gulzori. Nashrga tayyorlovchilar: I.Qosimov, A.Valixonov. –T.: 1983 y.
6. Uvaysiy. Mazmun ma'dani. Tuzuvchilar: A. Turdialiev. – Toshkent, 2010.

